

**BUGUNGI KUNDA DAUN SINDROMI BILAN TUG'ILGAN BOLALARNING
STATISTIKASI, METODLARI, ULARNI DAVOLASH USULLARI VA BUGUNGI
KUNDAGI DOLZARBLIGI**

Eshquvatov Muhammadqodir Almaxammad o'g'li

Islamov Og'abek Abdurashid o'g'li

Qarayev Saydullo Boburovich

Karimov Abdurasul Otamurod o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali davolash fakulteti talabasi

Meliqulova Sevara Almaxammadovna

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Sariosiyo filiali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Daun sindromining kelib chiqish sababi, kasallikning belgilari, oldini olish, jamiyatda o'z ornini topish kabi ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Daun, gipofizgipofiz jinsiy bezlar, immunitet, kasallikka chidamsizlik, zaiflik, kech balog'atga yetish.*

Mavzuni dolzarbligi: Daun sindromi bilan tug'ilayotgan bolalarning nuqsonlarining oshishi, yuqumli kasallikka nisbatan immunitet hosil qila olmaslik.

Asosiy qism: Bu kasallikni Angliyalik vrach Djon Daun birinchi marta 1866-yilda aniqlagan. Djon Daun bu kasallikka birinchi marta "Mangoloid sindromi" deb nom beradi. Keyinchalik 1961-yilda Djon Daun sharafiga "Daun "sindromi deb qayta nomladi. Daun usha vaqtda kasallikni 12 ta alomatini izohlab bergan. Xozirgi vaqtda bu kasallikni alomati 56 taga yetgan. Daun kasalligi odatda 21 autosomaning oshib ketishi natijasida sodir bo'ladi. Bunday kasallikda 46 xromosoma o'rniga 47 xromosoma kuzatiladi. Ushbu sindrom autosomalar sonining o'zgarishi bilan yuzaga chiqqanligi uchun erkaklarda ham ayollarda ham kuzatiladi. Daun sindromi bilan tug'iloshning asosiy sababidan biri bu onaning yoshi hisoblanadi. Onaning yoshi ulg'aygan sari uning farzandlarining Daun kasalligi bilan tug'ilish ehtimoli ham ko'payadi.

Ma'lumotlarga ko'ra 45 yoshdan oshgan ayyolardan tug'iladigan farzandlardan har 10 000 tadan :312 tasi Daun kasalligi bilan tug'ilayotgani ma'lum bo'lgan. Daun kasalligiga uchragan hamma bolalar har xil oilalarda tug'lgan bo'lsa ham tashqi qiyofasi bir-biriga juda o'xshash bo'ladi. Kasal bolaning bo'yi o'rta holga nisbatan past, bosh suyagining shakli bizilgan, ko'zlari qishiq kesmali kichkina, quloq suprasi kichik, og'zi yarim ochiq, og'zidan ko'pincha tili chiqib turadi, lablari quruq, teri rangi sarg'ishroq oq, ko'zda g'ilyalik holatlari ham uchray, tishlari bir tekisda bo'lmaydi. Boshida sochlari siyrak va silliq. Qo'l barmoqlari kalta va yo'g'on, jimjimaloq barmog'i qeshaibrog' qolishi, birinchi va ikkinchi oyoq barmoqlari orasidagi masofalarning kengayishi, kaft terisida ko'ndalang iz paydo bo'lishi bu kasallikni asosiy xarakterli belgisi hisoblanadi. Bundan tashqari tildagi o'zgarishlar tilning katalashuvi tildagi katta-katta yorilgansimon izlarning paydo bo'lish holati ham kasllik belgisi hisoblanadi. Kasal insonda mushak tizimini juda sust rivojlanadi va mushaklar tonusi pasayib ketishga sabab bo'ladi. Bu sindromi bilan tug'ilgan bolalar aqliy jihatdan ham jismoniy jihatdan ham ko'p hollarda zaif bo'lishadi. Ayrim hollarda ular yozishni va o'qishni o'rganishi mumkin lekin

sanashni o'rgana olmaydi. Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalarda bosh miya sohasi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ko'pincha neyro-endokrin sistemasining o'zgarishlari vujudga kelganligi uchun bolalar semirib ketish holatlari kuzatiladi. Bemor bolalarning deyarli umri qisqa bo'ladi, ularning ichki organlarining rivojlanmasligi tufayli paydo bo'lgan kasalliklardan ko'p qismi vafot etadi. Bunday bolalar ichida 50% yurak yetishmovchiligi 15% ovqat hazim qilish sistemasining kasalliklari, 20% siydik ayirish organlarining anomaliyalari tugayli vafot etadi. Daun kasalligi bor bolalarda immunitet past bo'lganligi uchun ular har xil yuqumli kasalliklarga bardosh Bera olmasdan yoshligidayoq nobudy bo'lishadi. Agarda bemor bolalar o'z vaqtida shifokor nazorati ostida davolansa kerakli muolajalarni olib tursa yuqumli kasalliklarga nisbatan imunitet hosil qiladi. Dun sindromi bilan og'rigan bolalar balog'at yoshiga Sal kechroq yetadi. 20- 25 yoshda ular yetuklik davrida bo'ladi. Daun sindromiga Duchovny bo'lganlarda farzand ko'rish ehtimoli judda past, ayrim hollarda farzandlik bo'lganlari ham ma'lum, leki bolalarning yarmi Daun kasalligi bilan og'rigan bo'lib dunyoga keladi. Daun sindromi bilan og'rigan bolalar o'zgalarning his-tuyg'ularni tushunishmaydi. Ular boshqalarning jail, qayg'u, xursandchilik, yig'i Kabir hissiyotlarini to'g'ri baholash uchun yetarli darajadagi ma'lumotlarini qabul qila olmaydi. Shining uchun mos reaksiya qaytarmaydi. Siz jahl qilganingizda u kulishi yoki gapirganingizda javob qaytarmaslik holatlari shular jumlasidan. Hozirgi davrda tibbiyotning rivojlanishi natijasida Daun sindromi bilan og'rigan bemorlar 60 hatto 70 yoshgacha yashashi mumkinligi aniqlangan. Zaminaviy tibbiyotda xromosomalarning o'zgarishiga qarab Daun sindromining ikkita turi farqlanadi.

1. Trisomiya ota-ona gametalaridan brining 21- xromosomasi tarqalmasligi natijasida kelib chiqadi. Bunda to'liq trisomy bo'lsa bemorning hamma hujayralatida anomaliyali xromosomalar saqlanadi. Bunday bolalar Daun sindromida 95% hollarda uchraydi

2. Chala monosomiya (mozaika) Mozayka xilida hujayralarning bir qismi sog'lom, bir qismi anomaliyali bo'ladi va bunday bolalarda yengil intellektning pasayishini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa: Statistika ma'lumotlariga qaraganda o'rta hisobda 1 kundan tug'ilayotgan 700 ta chaqaloqdan bittasida Daun kasalligi bilan tug'iladi. Butunjahon Daun sindromi kuni sifatida 2006 – yildan boshlab dunyoda 21- mart kkuni “Daun sindromi” bilan kasallangan bolalar kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Daun sindromi bilan tug'ilayotgan bolalar orasida o'limni oldini olish uchun eng birinchi navbatda bola muntazam ravishda shifokor ko'rigidan o'tishi kkerakli muolajani olishlilik tavsiya etiladi. Daun sindromi bilan bolalarni tug'ilmasligi uchun birinchi navbatda yosh (balog'atga yetmagan) yoki qari insonlarni farzand ko'rish muddatini to'g'ri vaqtda ya'ni o'z vaqtida farzandli bo'lish holatida bu sindrom deyarli oldi olingan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Odam genetikasi." A. G'afurov. K. Fayzullayev. 2018-yil
- 2."Tibbiy bialogiya va genetika asoslari" P. X. Xolikov. A.Q. Qurbonov. A. O. Daminov. M. V. Tarinova. 2019-yi
- 3."Tibbiy genetika"K.N .Nishonboyev, J.H.Hamidov. 2005-yil